SCIENCE HUB REVIEW
2026
Volume 1
Issue 5
www.sciencehubreview.uz
ILMIY ELEKTRON JURNAL

RESTORAN VA MEHMONXONA XIZMATLARINING IQTISODIY MAZMUNI VA TURIZM INDUSTRIYASIDAGI O‘RNI

Maxammadova Gulsoraxon

Farg‘ona davlat universiteti, Iqtisodiyot fakulteti, Turizm va mehmondo‘stlik yo‘nalishi 1-kurs magistranti

akbaraliyevagulsora3103@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada mehmondo‘stlik sanoatining asosiy bo‘g‘inlari bo‘lgan restoran va mehmonxona xizmatlarining iqtisodiy mohiyati, ularning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi hamda bandlikni ta’minlashdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, mazkur sohalarning zamonaviy turizm industriyasi rivojiga ko‘rsatadigan ko‘p tarmoqli ta’siri yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar

mehmondo‘stlik industriyasi, mehmonxona xo‘jaligi, restoran biznesi, turizm iqtisodiyoti, xizmatlar sohasi, multiplikativ samara.

Kirish

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida xizmatlar sohasi yetakchi o‘rinni egallab bormoqda. Xususan, turizm va mehmondo‘stlik industriyasi mamlakatlar iqtisodiy o‘sishining asosiy drayverlaridan biriga aylangan. Sayyohlarning safar davomidagi asosiy ehtiyojlari — tunash va ovqatlanishni qondiruvchi mehmonxona hamda restoran xizmatlari ushbu industriyaning moddiy-texnik bazasi va daromad manbai hisoblanadi.

Restoran va mehmonxona xizmatlarining iqtisodiy mazmuni

Iqtisodiy nuqtayi nazardan restoran va mehmonxona xizmatlari nomoddiy ne’matlar yaratish jarayoni bo‘lib, ular ishlab chiqarish va iste’molning bir vaqtda kechishi bilan ajralib turadi. Mazkur xizmatlarning iqtisodiy mazmuni bandlikni ta’minlash, qo‘sjhilgan qiymat yaratish, multiplikativ samara va valyuta tizimi kabi sohlarning asosiy jihatlarida namoyon bo‘ladi. Jumladan, qo‘shilgan qiymat yaratib mehmonxona va restoranlar

xomashyo hamda mehnat resurslarini qayta ishlash orqali yuqori qo‘shilgan qiymatga ega tayyor xizmat mahsulotini shakllantiradi. Bandlikni ta’minlash haqida so‘z yuritadigan bo‘lsak, mehmondo‘stlik sohasi mehnat sig‘imi yuqori bo‘lgan tarmoqdir. U nafaqat malakali mutaxassislar, balki yoshlar va mavsumiy ishchilar uchun ham ko‘plab ish o‘rinlari yaratadi. Bundan tashqari:

– Multiplikativ samara: Bitta mehmonxona yoki restoran faoliyati qishloq xo‘jaligi, oziq-ovqat sanoati, qurilish, transport, to‘qimachilik va kommunal xizmatlar kabi o‘nlab yondosh tarmoqlarga buyurtmalar berish orqali iqtisodiyotda zanjirli o‘sishni rag‘batlantiradi.

– Valyuta tushumi va soliq bazasi: Xorijiy sayyohlarga ko‘rsatilgan xizmatlar mamlakatga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy valyuta oqimini ta’minlaydi hamda davlat byudjetiga tushadigan soliq tushumlarini oshiradi.

Turizm industriyasidagi o‘rni va ahamiyati

Turizm mahsulotining raqobatbardoshligi bevosita joylashtirish va ovqatlanish infratuzilmasining sifatiga bog‘liq. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, sayyohlar umumiy xarajatlarining 50–65 foizi aynan mehmonxona va restoran xizmatlari hissasiga to‘g‘ri keladi.

Ushbu ikki tarmoqning turizm industriyasidagi o‘rni turistik oqimni shakllantirish, gastronomik turizmni rivojlantirish va huduiy infratuzilmani modernizatsiya qilish bilan belgilanadi. Ya’ni:

– Turistik oqimni shakllantirish: Zamonaviy va qulay mehmonxonalar tarmog‘isiz hududga yirik sayyohlik oqimini jalb etish imkonsiz. Joylashtirish vositalarining xilma-xilligi (lyuks mehmonxonalar, xostellar, mehmon uylari) turli daromad darajasidagi sayyohlarni qamrab olish imkonini beradi.

– Gastronomik turizmni rivojlantirish: Restoran biznesi bugungi kunda shunchaki ovqatlanish maskani emas, balki mustaqil turistik jozibadorlik markaziga aylangan. Milliy taomlar va mahalliy oshxona madaniyati sayyohlarning hududga qiziqishini oshiruvchi muhim omildir.

– Hududiy infratuzilmani modernizatsiya qilish: Yangi mehmonxona va restoran majmualarining barpo etilishi chekka hududlarda ham yo‘llar, aloqa tarmoqlari va muhandislik kommunikatsiyalarining yaxshilanishiga olib keladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, restoran va mehmonxona xizmatlari nafaqat turizm industriyasining ajralmas tarkibiy qismi, balki milliy iqtisodiyotning barqaror o‘sishini ta’minlovchi muhim tarmoqdir. Sohaga raqamli texnologiyalarni joriy etish, xizmat ko‘rsatish standartlarini xalqaro talablarga moslashtirish hamda kadrlar malakasini oshirish kelgusida turizm salohiyatidan yanada samarali foydalanish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining «Turizm to‘g‘risida»gi Qonuni.

2. Tuxliyev I.S., Hayitboyev R., Safarov B.Sh., Tursunova G.R. Turizm asoslari. Darslik. — Toshkent: «Fan va texnologiya», 2014.

3. Walker J.R. Introduction to Hospitality. — Pearson Education, 2021